



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ  
ФАКУЛЬТЕТ ИСТОРИЯ**

***МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ***

***«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА  
НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ:  
СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОБЛЕМЫ  
И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»***



*2023/Октябрь 31*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

***“MARKAZIY OSIYO XALQLARI MODDIY VA MA’NAViy  
MADANIYATI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR, MUAMMO VA  
O‘RGANISH USULLARI”  
XALQARO ILMiy-AMALIY ANJUMANI***

***МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ  
«МАТЕРИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА НАРОДОВ  
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,  
ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ»***

[www.jspu.uz](http://www.jspu.uz)

**ДЖИЗАК, УЗБЕКИСТАН  
31 октября 2023 года**

**«Markaziy Osiyo xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyati: zamonaviy tadqiqotlar, muammo va o’rganish usullari» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami.** – Jizzax DPU, 2023. – 406-bet.

Mazkur to’plamga kiritilgan maqolalar tarix, arxeologiya va etnologiya sohalarining muhim masalalari bilan bog’lik xolda talqin qilingan. Mutaxassislar, o’qituvchilar va talabalar uchun mo’ljallangan.

В статьях вошедшие в этот сборник, интерпретируются в связи с важными вопросами истории, археологии и этнологии. Она предназначена для специалистов, преподавателей и студентов.

These articles included in this collection are interpreted in connection with important issues of history, archeology and ethnology. It is intended for professionals, teachers and students.

**Mas’ul muharrir:**  
*dots. M.H. Pardayev*

**Ответственный редактор**  
*доц. М.Х.Пардаев*

**Executive editor**  
*doc.M.Pardaev*

**Mas’ul kotib:**  
*A.S. Majidov*

**Ответственный секретар**  
*А.С.Мажидов*

**Executive Secretary**  
*A.Majidov*

**Tahrir hay’ati:**

**Редакционная коллегия:**

**Editorial board:**

*prof. B.H.Matboboyev*  
*prof. F.AAxmedshina*  
*prof. B.Mirkomilov*  
*dots. F.E. Toshboyev*  
*dots. F.Sh.Aqchayev*  
*dots. A.H. Pardayev*  
*A.X.Valiyev*  
*PhD. B.N.Mirzayev*

*проф. Б.Х.Матбобоев*  
*проф. Ф.А.Ахмедшина*  
*проф. Б.Миркомилев*  
*доц. Ф.Э.Ташибаев*  
*доц. Ф.Ш.Акчаев*  
*доц. А.Х. Пардаев*  
*А.Х.Валиев*  
*Б.Н.Мурзаев*

*prof. B.Matboboev,*  
*prof. F.Axmedshina,*  
*prof. B.Mirkomilov,*  
*doc. F. Toshboev,*  
*doc. F.Akchaev,*  
*doc. A. Pardaev,*  
*A.Valiev,*  
*PhD. B.Mirzaev*

*Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashining 2023-yil \_\_\_\_\_-oktabr \_\_\_-sonli yig’ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.*

***Ma’ruzalar materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma’lumotlar va chiqarilgan xulosalarning haqqoniyligiga mualliflar javobgar.***

7. *Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. - Toshkent: Akademiya, 2000.*
8. *Azamat Ziyov. O‘zbek xalqi Davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.*
9. *Mavlonov O‘.M. O‘rta asrlar mahalliy sulolalar davrida karvon yo‘llari // Jamiyat va boshqaruv. Toshkent. 2017. №3.*
10. *Negmatov N. N. Gosudarstvo Samanidov. – Dushanbe: Donish, 1977.*
11. *Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. T.: 2019.*
12. *Sagdullayev A.S. va boshq. O‘zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2000.*
13. *Abuseitova M.X. i dr. Istoriya Kazaxstana i Sentralnoy Azii. Almati. Bilim. 2001.*
14. *Shoniyozov K. SH. Qarluq Davlati va qarluqlar. Toshkent: Sharq, 1999*
15. *Shoniyozov K. SH. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: Sharq, 2001*

## **O‘RTA OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH MASALASI DAVRIY MATBUOT SAHIFALARIDA (“OZOD BUXORO” GAZETASI MATERIALLARI ASOSIDA)**

*Hayitov Shodmon - professor, t.f.d., Rahmonov Kamol - dotsent, t.f.n.*

*Buxoro davlat universiteti*

*Maqolada BXSРning matbuot organi hisoblangan “Ozod Buxoro” gazetasida e‘lon qilingan maqola va ma‘lumotlarda O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishga munosabat masalasi imkon qadar tahlil etilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *millat, milliy masala, mustamlaka, inqilob, xorijiy, siyosat, jumhuriyat, huquq*

*В данной статье максимально подробно анализируется вопрос отношения к национально-территориальному размежеванию в Центральной Азии в статьях и информации, опубликованных в газете “Свободная Бухара”, которая считался рупором БХСР.*

**Ключевые слова:** *Нация, национальный вопрос, колония, революция, внешняя политика, республика, закон*

*This article analyzes in as much detail as possible the issue of attitude to the national-territorial demarcation in Central Asia in articles and information published in the newspaper “Free Bukhara”, which was considered the mouthpiece of the BPSR.*

**Keywords:** *Nation, national question, colony, revolution, foreign policy, republic, law*

Sovet hokimiyatining 1920-1930 yillar bosqichi tarixida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi markaziy o‘rinlardan biri hisoblanib, ushbu muammo hamon uzil-kesil yakuniy ilmiy bahosini olgan emas. Bu masalada tarixchi, siyosatchi, iqtisodchi va madaniyatshunos olimlar hamon ilmiy bahs olib boradilar hamda muammoga o‘z sohalari nuqtai nazaridan fikr-mulohazalar bildiradilar. Milliy-hududiy chegaralanish siyosati Turkiston xalqlari milliy birligi, iqtisodiy yakdilligi, istiqboldagi integratsiya jarayonlariga qarshi qaratilgan voqelik sifatida xalqlar do‘stimiz rahna solishga asoslangan edi, degan ilmiy xulosa mustaqillik yillarida ustunlik qilmoqda. Biroq O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning manbashunosligi, Vatan va xorij tarixshunosligi bilan bog‘liq tadqiqotlarni atroflicha o‘rganish bu boradagi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Jumladan, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) hukumati yillarida “Buxoro axbori” gazetasining (1920-1923 yy) davomchisi hisoblangan “Ozod Buxoro” gazetasi (1923-1929 yy) sahifalarida 1923 yil bahoridan kuz fasli

oxirgi noyabr oyi davomida bosilgan maqolalar tahlil etilar ekan, ustida mulohaza yuritilayotgan masalaga tegishli boy ma'lumotlar olish mumkin. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga oid "Ozod Buxoro" gazetasidagi manbalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin

1. BXSР hukumati va Turkiston ASSRdagi mas'ul shaxslar tomonidan yozilgan maqolalar va suhbat materiallari

2. Turli uyushma (partiya, kasaba soyuz, jamoatchilik kengashlari, komissiyalar faoliyati)lar tadbirlari bilan bog'liq xabarlar

3. BXSР mehnatkashlarining 5-qurultoyidagi O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi ma'lumotlari.

BXSР hukumati a'zolaridan Fayzulla Xo'jayev va Abdulqodir Muhiddinovlar "Ozod Buxoro"ning bir qator sohalarida o'z maqolalari bilan chiqishlar qildilar. Biz F.Xo'jayevning 1924 yil avgust oyida 3 ta, noyabr oyida 1 ta maqolasi O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga qaratila yozilganini aniqladik [1]. Shuningdek, Abdulqodir Muhiddinov bu borada F.Xo'jayevdan bir qadar oldin chegaralanishga o'z shaxsiy munosabatini bildirgani gazeta ma'lumotlari orqali aniq bo'ldi. A.Muhiddinovning 1924 yil mart, aprel oylarida "Ozod Buxoro"ning 2 ta sonida salmoqli maqolasi bosilgan [2]. Yuqoridagilardan tashqari O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasida Turkiston ASSR markaziy ijroiya qo'mitasi o'rinbosari Xo'janov bilan suhbat, Turkiston kommunistlar firqasi markaziy ijroiya qo'mitasining mas'ul sarkotibi o'rtoq Rahimboyev bilan muloqot kabilar ham bosilgan, mas'ul xodim Mas'ud Qurbonov xabarnomasi kabilar "Ozod Buxoro" sahifalaridan o'rin olgan [3]. Hukumat a'zolari va partiya yo'l boshchilari maqolalari tahlil etilar ekan, ularda sinfiylik nazariyasi va kommunistik mafkura yetakchilik qiladi. O'rta Osiyo tarixiy bosqichlariga murojaat qilinib mintaqa (Farg'ona, Xorazm, Buxoro) 50 yillar davomida Rossiya imperiyasi mustamlakasi asoratida mustamlaka qilib kelinganligi 7 yil (1917-1924 yy) "inqilob" tufayli xalqqa erkinlik va ozodlik berilganligiga alohida urg'u berilgan. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishga xalqning azaliy orzu-istagi sifatida qaralgani ko'rsatilgan. Biroq O'rta Osiyo respublikalari dohiliy (ichki) va xorijiy (tashqi) masalalarda mustaqil bo'lishi, o'z huquqini o'zi belgilashi, iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lish sharti ittifoq tarkibiga kirishi haqida erkin fikr-mulohazalar ham ilgari surilgan. Aftidan, "Markaz" milliy-hududiy chegaralanish mahalliy aholi hoxish irodasi bilan tabiiy o'tkazilmoqda degan ruhiy holatni yuzaga keltirmoqchi bo'lgan. Shu sababli F.Xo'jayev va A.Muhiddinovlarning salmoqli maqolalari mafkura doirasini yorib chiqqa olmagan. "Ozod Buxoro" sahifalarida BXSРning 5-qurultoyi materiallari bosilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qurultoyda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi, BXSРdagi turkman va tojik millatlari taqdiri ancha keng muhokama qilingan. Qurultoy o'zbeklar yashaydigan hududlar, O'zbekiston SSRga kirishi zarur bo'lgan viloyatlar haqida muhokamalar uyushtirib, 1 mln 200 ming sonli tojiklar, 400-500 ming sonli turkmanlar taqdiri masalasida komissiyalar tashkil etishni taklif etgan [4]. Gazetadagi ma'lumotlar



tahlil etilar ekan, BXSРning 5-qurultoyida tashkil etilajak O‘zbekiston SSRning 1-syezdi Buxoroda o‘tkazilishi, Samarqand shahri poytaxt shahar qilib belgilanishiga qaror qilgan [5]. Negadir, Toshkent shahrini O‘zbekiston tarkibida bo‘lishi shartligi bilan bog‘liq ma‘lumotlar gazetada keltirilgan. Bizningcha, ushbu shahar hududlarini O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish tufayli vujudga keladigan ayrim respublikalarga berish bilan bog‘liq takliflar bo‘lgan. Bu o‘rinda Qozog‘iston O‘rta Osiyo respublikalari hududiga kirmasligi, yagona hududiy birlik ekanligi haqida ham gazetadagi maqolalarda fikrlar keltirilganligini inobatga olish mumkin. Tadqiqot davomida amin bo‘lindiki, “Ozod Buxoro” gazetasi o‘z davrining matbuot organi sifatida 1924 yilning muhim siyosiy voqeasi O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish bilan bog‘liq masalani diqqat e‘tiboridan qochirmagan. Gazeta sahifalaridan biz aniqlagan maqolalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, BXSР hukumati a‘zolari, faol jamoatchilik O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi ijobiy hodisot sifatida qarshilamay, tahlikada bo‘lsa-da, undan xayrli natijalar kutganlar. Shu o‘rinda ta‘kidlash mumkinki, ehtimol, “Ozod Buxoro”ning biz izlab topa olmagan boshqa sonlarida ham O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasiga daxldor maqola, ma‘lumot va xabarlar bo‘lishi mumkin. Mulohaza va taklif sifatida aytish joizki, 1920 yillar matbuotida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasining yoritilishi alohida tadqiq etilsa, ilmiy jihatdan ahamiyatli bo‘lard.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**

1. Fayzulla Xo‘ja. O‘rta Osiyo mamlakatlarini milliy chegaralash masalasi //Ozod Buxoro. 125-son. 1924 yil 11 avgust; Milliy chegaralanish xususida //Ozod Buxoro. 126-son. 1924 yil 14 avgust; O‘rta Osiyoni milliy jumhuriyatlarga bo‘lish //Ozod Buxoro. 132-son. 1924 yil 25 avgust. Markazda O‘rta Osiyo masalasi //Ozod Buxoro, 163-son. 1924 yil 14 noyabr.
2. Abdulqodir Muhiddinov. Milliy jumhuriyatlar tashkili //Ozod Buxoro, 67-son. 1924 yil 27 mart; Milliy jumhuriyatlar tashkili va Buxoro turkmanlari //Ozod Buxoro, 80-son. 1924 yil 20 aprel.
3. O‘rta Osiyo milliy jumhuriyatlari tevaragida //Ozod Buxoro, 130-son. 1924 yil 21 avgust; Jumhuriyatimizda. Milliy jumhuriyatlar tevaragida //Ozod Buxoro, 134-son. 1924 yil 29 avgust
4. Abdulqodir Muhiddinov. Milliy jumhuriyatlar tashkili va Buxoro turkmanlari //Ozod Buxoro, 80-son. 1924 yil 20 aprel
5. Markazda O‘rta Osiyo masalasi //Ozod Buxoro, 163-son. 1924 yil 14 noyabr.

## **IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA QORAQALPOLG‘ISTON ASSR PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATI**

**Zaripbayev Usnatdin**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

*Ushbu maqolada 1941-1945 yillardagi Vatan urushi yillarida Qoraqalpog‘iston ASSR prokuraturasining ish faoliyati va barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan prokuratura xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qoraqalpog‘iston ASSR, prokuratura, Oliy Sovet, inson huquqlari, inson yerkinliklari, fuqaro, prokuratura, g‘alaba, xalqaro standartlar, Qoraqalpog‘iston milliy qonunchiligi.*

*В данной статье рассматривается деятельность прокуратуры Каракалпакской АССР в годы Отечественной войны 1941-1945 годов и работа прокуратуры со всеми государственными органами, предприятиями, учреждениями и организациями.*

**Ключевые слова:** *Каракалпакская АССР, прокуратура, Верховный Совет, права человека, свободы человека, гражданин, прокуратура, победа, международные*

6. <b>Djuraev Ikrom, Abdumo‘minov Abdunabi.</b> O‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador madaniyati: Farg‘ona vodiysi misolida .....	238
7. <b>Alibekov Umurzok Yuldashevich.</b> Ustrushona dehqonchilik madaniyatining evolyusiyasi xususida .....	240
8. <b>Toshboev Furqat, Uzoqov S.</b> Jizzax vohasida tarixiy-madaniy va ziyorat turizmni rivojlantirish masalalariga doir. ....	244
9. <b>Eshmuhamatov Axror Sharipovich.</b> Chorvadorlar xo‘jaligining tarkib topishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari (Jizzax vohasi misolida) .....	247
10. <b>Nazarov Obid Rahimovich, Durdimuradova Dilnoza.</b> Markaziy Osiyoda dehqonchilik madaniyatining shakllanishi omillari .....	253
11. <b>Muminova Gulchexra Ismoilovna.</b> Ustrushona ilk o‘rta asrlar kullolik idishlarining turlariga doir ayrim mulohazalar.....	256
12. <b>Tugalov Boburjon Baxodir o‘g‘li.</b> Ustrushona qabr inshootlarining davrlashtirilishi masalalari xususida. ....	259
13. <b>Bazarbaev Sanjar Xamzaevich.</b> Ilk o‘rta asrlarda Ustrushona xalqlarining madaniy hayoti .....	262
14. <b>Majidov Anvar, Omonxonov Javlon.</b> Imperiya ko‘chiruvchilik amaliyotining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri (Sirdaryo viloyati misolida) .....	265
15. <b>Axmedova Zarnigor.</b> XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Samarqand viloyati ko‘chmanchi aholisi ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar .....	270
16. <b>Almanov Qaxramon Oblaqulovich.</b> XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi etnomadaniy muhitida mang‘itlar .....	273
17. <b>Mirzaeva N.J., Xolnazarova A.</b> Mirzacho‘l vohasi tarixining manbalarda yoritilishi(XIX asrning oxiri – XX asr boshlari) .....	278
18. <b>Boltaev Abdurasul.</b> Dehqonchilik madaniyatida sug‘orish sirlari. ....	280
19. <b>Kistaubaev S.</b> Jizzax viloyati cho‘l hududlari toponomikasiga nazar .....	283
20. <b>Sherniyazov R.X.</b> Quyi Amudaryo havzasi axolisining sungi urta asrlardagi etnosiyosiy jarayonlari .....	286
21. <b>Abdugapparov Orif.</b> Qoraqalpoq xalqining an’anaviy xo‘jaligi xususida.....	289
<b>IV ШУЪБА: МАРКАЗИЙ ОСИYO XALQLARI TARIXINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA YoRITILISHi: MUAMMO VA O‘RGANISH USULLARI</b>	
1. <b>Majidov Anvar. Sharofov Sirojiddin.</b> O‘zbekistonda diniy tolerantlik va millatlararo totuvlikning tarixiy ildizlari xususida.....	291
2. <b>Yakubov G‘ulom Salohiddinovich.</b> Jizzax aviatsiya bilim yurtining O‘zbekiston harbiy ta’lim rivojida tutgan o‘rni.....	296
3. <b>Narmanov Feruz Asfandiyorovich.</b> O‘zbekistonda tarix fani o‘qitilishiga doir ayrim mulohazalar (XX-asrning 30-40 yillari). ....	298
4. <b>Toshboev Jamshid.</b> Siyosiy tizim transformatsiyalashuvining siyosiy jarayonlarga ta’siri .....	300
5. <b>Toshboev Bobomurot.</b> O‘zbek millati shakllanishida o‘troq dehqon va chorvador ko‘chmanchi madaniyati simbiozining o‘rni .....	304
6. <b>Abduazimov Davron.</b> O‘rta asrlar davlatchiligida davlat boshqaruvining ayrim jihatlari xususida (VI-XIV asr o‘rtalari) .....	307
7. <b>Hayitov Shodmon Ahmadovich, Rahmonov Kamol Jamolovich.</b> O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish masalasi davriy matbuot sahifalarida (“Ozod	